
Vol. 2, No. 1 (2026)
ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN
ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



Vol. 2, No. 1 (2026)

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHI SHAXSI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK USULLARI

Soliyev Farxodjon Sodiqovich
Farg‘ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
ORCID ID 0000-0002-1945-8279

Akbarova Nigora Axmadjonovna
Farg‘ona imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kas-hunar texnikumi Ijtimoiy fanlar o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim muhitida o‘quvchi shaxsining psixologik xavfsizligini ta’minlashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari va usullari tahlil qilingan. O‘quvchilarning psixologik xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, jumladan, ijtimoiy-psixologik zaiflik, virtual autizatsiya, kommunikativ qiyinchiliklar hamda ijtimoiy dezintegratsiya holatlari o‘rganilgan. Ye.N. Gilemxanova tomonidan ishlab chiqilgan “Maktab o‘quvchilarining ijtimoiy-madaniy xavfsizligi indeksi” metodikasi asosida umumta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilari ishtirokida empirik tadqiqot o‘tkazilgan. Tadqiqot natijalari o‘quvchilarning psixologik zaifligi va virtual autizatsiyasi o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Ta’lim muassasalarida psixoprofilaktik va psixokorreksion faoliyatni takomillashtirish zarurligi asoslab berildi. Shuningdek, xavfsiz, qo‘llab-quvvatlovchi va gumanistik ta’lim muhitini shakllantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim muhiti, psixologik xavfsizlik, ijtimoiy-psixologik zaiflik, virtual autizatsiya, o‘quvchilar, psixokorreksiya, kommunikativ kompetentlik, ijtimoiy moslashuv, psixologik xizmat, tolerantlik.

Аннотация. В данной статье проанализированы социально-психологические механизмы и методы обеспечения психологической безопасности личности учащегося в образовательной среде. Рассмотрены факторы, оказывающие негативное влияние на психологическую безопасность учащихся, включая социально-психологическую уязвимость, виртуальную аутизацию, коммуникативные трудности и социальную дезинтеграцию. На основе методики Е.Н. Гилемхановой «Индекс

социокультурной безопасности школьников» проведено эмпирическое исследование среди учащихся старших классов общеобразовательных школ. Результаты исследования выявили статистически значимую взаимосвязь между психологической уязвимостью и виртуальной аутизацией учащихся. Обоснована необходимость совершенствования психопрофилактической и психокоррекционной работы в образовательных учреждениях. Разработаны практические рекомендации по формированию безопасной, поддерживающей и гуманистической образовательной среды.

Ключевые слова: образовательная среда, психологическая безопасность, социально-психологическая уязвимость, виртуальная аутизация, учащиеся, психокоррекция, коммуникативная компетентность, социальная адаптация, психологическая служба, толерантность.

Abstract. This article analyzes the socio-psychological mechanisms and methods of ensuring students' psychological safety within the educational environment. Factors negatively affecting students' psychological well-being, including socio-psychological vulnerability, virtual autismization, communication difficulties, and social disintegration, are examined. An empirical study was conducted among senior secondary school students using E.N. Gilemkhanova's "Index of Socio-Cultural Safety of School Students" methodology. The findings revealed a statistically significant relationship between students' psychological vulnerability and virtual autismization. The study substantiates the need to improve psycho-preventive and psycho-corrective activities in educational institutions. Practical recommendations for creating a safe, supportive, and humanistic educational environment are also proposed.

Keywords: educational environment, psychological safety, socio-psychological vulnerability, virtual autismization, students, psycho-correction, communicative competence, social adaptation, psychological service, tolerance.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida ta'lim muhitida o'quvchi shaxsining psixologik xavfsizligini ta'minlash dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Ta'lim muhitidagi ijtimoiy-psixologik xavfsizlik o'quvchilarning ruhiy barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi, o'zini erkin va himoyalangan his etishi hamda shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ta'lim muassasalarida o'quvchilarni turli xavf va tahdidlardan himoya qilish, ularning

psixologik farovonligini ta’minlash hamda sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish muhim pedagogik va psixologik vazifalardan biri sanaladi [5, 45-b.].

Ta’lim muhitida o‘quvchi xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar qatoriga ijtimoiy-psixologik bosim, zo‘ravonlik, diskriminatsiya, virtual qaramlik, kommunikativ qiyinchiliklar hamda ijtimoiy moslashuvdagi muammolar kiradi [3, 67-b.]. Mazkur omillar o‘quvchilarning psixologik holatiga, o‘quv motivatsiyasiga, ijtimoiy faolligiga va shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois ushbu tahdidlarning oldini olish va ularni bartaraf etishda ijtimoiy-psixologik profilaktika, psixologik qo‘llab-quvvatlash, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish hamda sog‘lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan usullardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Ta’lim muhitida o‘quvchi shaxsining psixologik xavfsizligini ta’minlash masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ta’lim muassasalarida xavfsiz psixologik muhit yaratish, o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash, shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash hamda destruktiv omillarning oldini olish masalalari keng yoritilgan. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ta’lim muhiti xavfsizligi nafaqat tashkiliy yoki texnik himoya bilan, balki ijtimoiy-psixologik omillar bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

Psixologiya fanida xavfsizlik tushunchasining ilmiy asoslari gumanistik psixologiya vakillari tomonidan ishlab chiqilgan. Jumladan, A. Maslou o‘zining ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasida insonning xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyojini fiziologik ehtiyojlardan keyingi eng muhim ehtiyoj sifatida tavsiflaydi. Olimning fikricha, shaxs o‘zini xavfsiz his qilmagan muhitda uning intellektual va ijodiy imkoniyatlari to‘laqonli namoyon bo‘la olmaydi. Shaxsning o‘zini namoyon qilishi, ijtimoiy faolligi hamda ichki salohiyatining rivojlanishi uchun, avvalo, psixologik himoyalangan muhit zarur hisoblanadi [7, 64-b.].

Shuningdek, E. Fromm inson xavfsizligini jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘laydi. U shaxslararo munosabatlarda mehr, ishonch va o‘zaro hurmatning mavjudligi insonning ruhiy barqarorligini ta’minlashini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, inson o‘zini ijtimoiy jihatdan qabul qilingan va qadrlangan deb his qilganidagina uning psixologik himoyasi shakllanadi [2, 83-b.]. Shu jihatdan qaraganda, ta’lim muhitidagi sog‘lom ijtimoiy munosabatlar o‘quvchilar xavfsizligining muhim omillaridan biri sanaladi.

Mahalliy olimlardan V.M. Karimova ijtimoiy-psixologik muhitning shaxs kamolotiga ta’sirini tahlil qilib, o‘quvchilarda ijtimoiy mas’uliyat va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish xavfsiz muhit yaratishning asosiy sharti ekanligini qayd etadi [5, 112-b.]. Muallifning fikricha, o‘quvchilarni ijtimoiy faollikka jalb qilish, jamoaviy hamkorlikni rivojlantirish hamda shaxsiy fikrni erkin ifodalash imkoniyatini yaratish psixologik xavfsizlikni mustahkamlaydi.

Pedagogik psixologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlarda o‘quvchilarda mas’uliyat hissini shakllantirish xavfsizlikni ta’minlashning muhim omili sifatida ko‘riladi. Z.T. Nishonovaning ta’kidlashicha, o‘quvchilarda o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish, ijtimoiy me’yorlarga rioya qilish va intizomlilik sifatlarini rivojlantirish orqali ta’lim muhitidagi nizoli vaziyatlarning oldini olish mumkin [8, 91-b.]. Olimaning ilmiy qarashlariga ko‘ra, o‘quvchi o‘z harakatlari uchun javobgarlikni his qilganida unda o‘zini boshqarish ko‘nikmalari shakllanadi, bu esa destruktiv xulq-atvorning kamayishiga olib keladi.

Ta’lim muhitida motivatsion omillarning roli ham ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan alohida o‘rganilgan. M. To‘xtaboyevaning ilmiy izlanishlarida o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirishda rag‘batlantirish tizimining ahamiyati asoslab berilgan. Muallif adolatli baholash, ijobiy motivatsiya va yutuqlarni e’tirof etish o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishini hamda ta’lim muhitida ijobiy psixologik muhit shakllanishiga xizmat qilishini qayd etadi [9, 113-b.]. Ayniqsa, ichki motivatsiyaning rivojlanishi o‘quvchilarning ruhiy barqarorligini mustahkamlashi va stressga bardoshliligini oshirishi ta’kidlanadi.

Kommunikativ munosabatlarning psixologik xavfsizlikka ta’siri masalasi A. Mahmudov tadqiqotlarida keng yoritilgan. Olimning fikriga ko‘ra, o‘quvchilar o‘rtasida empatiya, o‘zaro yordam va hurmat tamoyillariga asoslangan munosabatlar mavjud bo‘lsa, jamoada psixologik sog‘lom muhit shakllanadi [6, 58-b.]. Tadqiqotlarda guruhiy treninglar, kommunikativ mashqlar va hamkorlikdagi faoliyat o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilashi ilmiy jihatdan asoslangan.

So‘nggi yillarda ta’lim muhitida virtual xavflarning kuchayishi ham ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishiga aylangan. Ayniqsa, internetga qaramlik, virtual autizatsiya va ijtimoiy izolyatsiya muammolari o‘smirlar psixologiyasida jiddiy tahdid sifatida baholanmoqda. E.N. Gilemxanova tomonidan ishlab chiqilgan “Maktab o‘quvchilarining ijtimoiy-madaniy xavfsizligi indeksi” metodikasi aynan o‘quvchilardagi ijtimoiy-psixologik zaiflik, dezintegratsiya va virtual autizatsiya

holatlarini aniqlashga qaratilgan [4, 137-b.]. Tadqiqotchining fikricha, virtual muhitga haddan tashqari bog‘liqlik o‘quvchilarning real kommunikativ faolligini pasaytiradi va ularning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’lim muhitida zo‘ravonlik va diskriminatsiyaning oldini olish masalasi ham ko‘plab ilmiy izlanishlarda markaziy o‘rin egallaydi. N. Ergashevning ilmiy qarashlarida tolerantlik va bag‘rikenglik muhitini shakllantirish shaxslararo nizolarni kamaytirishning samarali vositasi sifatida talqin qilinadi [1, 76-b.]. Olimning ta’kidlashicha, o‘quvchilarni inson huquqlariga hurmat ruhida tarbiyalash, ijtimoiy tenglikni ta’minlash va konfliktlarni konstruktiv hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim muassasalaridagi psixologik xavfsizlikni mustahkamlaydi.

Shuningdek, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda psixologik xizmat faoliyatining samaradorligi ham alohida o‘rganilgan. X. Xolmatovning ilmiy ishlarida maktab psixologlarining profilaktik va psixokorreksion faoliyati o‘quvchilarning emotsional holatini barqarorlashtirishda muhim omil sifatida baholanadi [10, 102-b.]. Muallifning fikricha, psixologik maslahatlar, treninglar va diagnostik metodikalardan foydalanish orqali o‘quvchilarda xavotirlik, agressivlik hamda ijtimoiy chetlashuv holatlarining oldini olish mumkin.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili ta’lim muhitida o‘quvchi shaxsining psixologik xavfsizligini ta’minlash kompleks yondashuvni talab qilishini ko‘rsatadi. Xavfsiz ta’lim muhiti o‘quvchilarning nafaqat akademik muvaffaqiyatiga, balki ularning psixologik salomatligi, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy kamolotiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois ta’lim muassasalarida ijtimoiy-psixologik profilaktika, kommunikativ madaniyatni rivojlantirish, motivatsion qo‘llab-quvvatlash va psixologik xizmat tizimini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktab o‘quvchilarining ijtimoiy-madaniy xavfsizligi darajasini aniqlash maqsadida Qo‘shtepa tumani 1-son umumiy o‘rta ta’lim maktabining yuqori sinf o‘quvchilari o‘rtasida E.N. Gilemxanova tomonidan ishlab chiqilgan “Maktab o‘quvchilarining ijtimoiy-madaniy xavfsizligi indeksi” so‘rovnomasi asosida empirik tadqiqot o‘tkazildi. Tadqiqotda jami 347 nafar o‘quvchi ishtirok etdi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, respondentlarning 36,31 foizida ijtimoiy-psixologik zaiflik belgilari aniqlangan. Mazkur ko‘rsatkich o‘quvchilarda o‘ziga nisbatan past bahoning mavjudligi, tashqi ta’sirlarga beriluvchanlik, shuningdek, stressli vaziyatlarda psixologik himoyalanganlik darajasining yetarli emasligini

ko‘rsatadi [4, 124-b.]. Olingan natijalar o‘quvchilarning ijtimoiy-psixologik moslashuvini mustahkamlash, ularda stressga bardoshlilik va o‘ziga ishonch hissini rivojlantirishga qaratilgan psixoprofilaktik hamda psixokorreksion tadbirlarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

1-jadval

“Ijtimoiy-psixologik zaiflik” shkalasi bo‘yicha statistik natijalar

Sinf	Me’yoriy ko‘rsatkich N (%)	Me’yordan og‘ish N (%)	O‘rtacha qiymat (M)	Σ (standart og‘ish)
9-sinf	72 (56,25%)	56 (43,75%)	11,8	2,4
10-sinf	83 (69,16%)	37 (30,83%)	13,9	2,1
11-sinf	66 (66,66%)	33 (33,33%)	13,4	1,9
Umumiy	221 (63,68%)	126 (36,31%)	13,0	2,1

Jadval natijalariga ko‘ra, eng yuqori ijtimoiy-psixologik zaiflik ko‘rsatkichi 9-sinf o‘quvchilarida kuzatildi (43,75%). Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, ushbu guruhning o‘rtacha qiymati (M=11,8) boshqa sinflarga nisbatan past ekanligi aniqlandi. Standart og‘ish ko‘rsatkichi (σ=2,4) esa mazkur guruhda individual tafovutlarning yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi.

Matematik-statistik tahlilda χ^2 (Chi-kvadrat) mezoni qo‘llanilganda sinflar o‘rtasidagi farqlar statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlandi (χ^2=6,41; $p \leq 0,05$). Ushbu natija yosh davri bilan bog‘liq psixologik omillarning ijtimoiy-psixologik zaiflik darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

“Ijtimoiy-psixologik zaiflik” shkalasi natijalari so‘rovnoma kalitiga muvofiq me’yoriy va og‘ish ko‘rsatkichlari asosida tahlil qilindi. Mazkur shkala o‘z tarkibiga ikki kichik shkalani qamrab oladi. Birinchi kichik shkala – viktimlik (viktimlilik) bo‘lib, u shaxsning jinoyat yoki salbiy ta’sirlar qurboniga aylanishga moyilligini ifodalaydi. Viktimlilik boshqalar uchun neytral hisoblangan vaziyatlarda ham shaxsning salbiy hodisalar qurboniga aylanish ehtimolini oshiruvchi barqaror psixologik xususiyat sifatida talqin etiladi.

Ikkinchi kichik shkala – autoagressivlik bo‘lib, shaxsning o‘ziga nisbatan jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan ongli yoki ongsiz faolligini ifodalaydi. Psixoanalitik yondashuv vakillari autoagressivlikni shaxsning himoya mexanizmlaridan biri sifatida izohlaydilar.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sinaluvchilarning 36,31 foizida viktim va autoagressiv xususiyatlar mavjudligi aniqlandi. Bunday o‘quvchilarda o‘ziga zarar yetkazish yoki salbiy ijtimoiy hodisalar qurboniga aylanish ehtimoli yuqori bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ularda telemaniya (televizion ko‘rsatuvlarga haddan tashqari bog‘liqlik), spirtli ichimliklarga qiziqish, toksikomaniya, qaltis jinsiy xulq-atvorga moyillik hamda ekstremal sport turlariga qiziqishning yuqoriligi kuzatilishi mumkin. Shu sababli mazkur toifadagi o‘quvchilar bilan maqsadli psixokorreksion ishlarni tashkil etish tavsiya etiladi.

Jadval natijalari yosh davrlariga xos tafovutlarni ham ko‘rsatdi. Jumladan, 9-sinf o‘quvchilari “Ijtimoiy-psixologik zaiflik” shkalasi bo‘yicha me’yoriy ko‘rsatkichda 56,25 foiz natija qayd etib, 10- va 11-sinf o‘quvchilariga nisbatan pastroq ko‘rsatkichni namoyon etdilar. Ushbu holatni hayotiy tajribaning kamligi hamda psixologik bilim va ko‘nikmalarning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlash mumkin. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 9-sinf o‘quvchilarining 43,75 foizi o‘zlarini ijtimoiy-psixologik jihatdan zaif deb baholagan.

10-sinf o‘quvchilari esa “Ijtimoiy-psixologik zaiflik” shkalasi bo‘yicha eng yuqori me’yoriy ko‘rsatkichni qayd etdilar. Ularning natijalari 11-sinf o‘quvchilariga nisbatan 3 foizdan ortiq farq bilan yuqori bo‘lib, mazkur guruhda psixologik barqarorlik va ijtimoiy moslashuv darajasi nisbatan yaxshiroq ekanligini ko‘rsatadi.

Umumiy natijalarga ko‘ra, sinaluvchilarning 63,68 foizi maktab muhitida o‘zlarini erkin va xavfsiz his qilishlarini qayd etdilar. Qolgan 36,31 foiz o‘quvchilar esa ta’lim muhitida uchrashi mumkin bo‘lgan qaltis vaziyatlarga nisbatan yuqori moyillikka ega ekanliklarini namoyon etdilar.

Mazkur xususiyatning namoyon bo‘lishi tashqi ta’sirlarga beriluvchanlik, passivlik, ijtimoiy hamkorlikka nisbatan yuqori sezuvchanlik bilan izohlanadi. Bunday holatlar ta’lim muhitida boshqa subyektlar bilan samarali hamkorlik qilishda qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu bilan birga, o‘ziga nisbatan destruktiv munosabat, aybdorlik hissi, arazchanlik, yuqori xavotirlik va o‘zini qadrlashning pasayishi kabi salbiy psixologik holatlar bilan kechishi kuzatiladi.

Mazkur xulq-atvorning asosiy tavsiflari sifatida shaxsiy yaxlitlik hissining pasayishi, salbiy “Men” konsepsiyasining shakllanishi, tashqi baholarga yuqori darajada bog‘liqlik va ta’sirchanlikni ko‘rsatish mumkin. Shuningdek, tashqi lokus nazoratning ustunligi, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishdan qochish hamda samarali koping-strategiyalarni shakllantira olmaslik holatlari ham kuzatiladi.

Bu esa qiyin hayotiy vaziyatlarni boshdan kechirish, stressga moslashish va emotsional muvozanatni saqlash imkoniyatlarini cheklaydi. Mazkur muammolarning asosiy sabablaridan biri sifatida shaxsning o‘ziga nisbatan past bahosi va bo‘ysunuvchanlik xususiyatlari qayd etiladi.

Ijtimoiy-psixologik zaiflikning yuqori darajada namoyon bo‘lishi subyektiv pozitsiyaning sustlashuvi, ijtimoiy passivlik, apatiya hamda ijtimoiy-psixologik moslashuv jarayonlarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy-psixologik dezintegratsiya natijalarining statistik tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning 72,33 foizi mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha me’yoriy natijalarni qayd etgan. Bu esa ularning jamoaga muvaffaqiyatli moslashganligi, tengdoshlari bilan samarali muloqot qila olishi hamda ijtimoiy aloqalarni barqaror olib borish qobiliyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

2-jadval

“Ijtimoiy-psixologik dezintegratsiya” shkalasi bo‘yicha statistik natijalar

Sinf	Me’yoriy ko‘rsatkich N (%)	Me’yordan og‘ish N (%)	O‘rtacha qiymat (M)	Σ
9-sinf	81 (63,28%)	47 (36,71%)	12,1	2,3
10-sinf	92 (76,66%)	28 (23,33%)	14,2	1,8
11-sinf	78 (78,78%)	21 (21,21%)	14,6	1,7
Umumiy	251 (72,33%)	96 (27,66%)	13,6	1,9

Natijalarga ko‘ra, 11-sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-psixologik moslashuv darajasi yuqori ekanligi aniqlandi. Mazkur guruhning o‘rtacha ko‘rsatkichi M=14,6 ni tashkil etdi. Aksincha, 9-sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-psixologik dezintegratsiya ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori darajada qayd etildi.

Variatsion tahlil (ANOVA) natijalari sinflar o‘rtasidagi farqlarning statistik jihatdan ishonchli ekanligini ko‘rsatdi ($F=4,87$; $p\leq0,05$). Ushbu natija yosh ortib borishi bilan kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy tajriba va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarining rivojlanishini tasdiqlaydi.

“Ijtimoiy-psixologik dezintegratsiya” shkalasi bo‘yicha olingan natijalar “Ijtimoiy-psixologik zaiflik” shkalasi natijalaridan farqli ravishda me’yoriy ko‘rsatkichlarning yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Jumladan, sinaluvchilarning 72,33 foizi ijtimoiy-psixologik dezintegratsiya holatidan xoli ekanligi hamda ularda individual psixologik introektlarning (shaxs tomonidan tanqidiy qayta ishlanmagan holda qabul qilingan tashqi talab va qadriyatlarning) past darajada ekanligi aniqlandi.

Sinaluvchilarning 27,66 foizida esa individual psixologik introektlarning yuqori darajada namoyon bo‘lishi qayd etildi. Bunday o‘quvchilarda ijtimoiy muhitga qo‘shilmaslik, chetlashganlik, jamoaviy faoliyatda passivlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga ehtiyojning yuqoriligi kuzatiladi. Shuningdek, ularda maqsadga yo‘naltirilganlikning sustligi, kelajakka oid rejalarning noaniqligi va ijtimoiy kutishlarga nisbatan befarqlik holatlari ham namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy-psixologik dezintegratsiya shkalasi bo‘yicha yuqori natijalarni qayd etgan o‘quvchilarning umumiy psixologik holatida jizzakilik, konfliktlarga moyillik hamda jamoa bilan samarali munosabatlar o‘rnata olmaslik kabi xususiyatlar kuzatildi. Bu esa ularning ta’lim muhitiga moslashuvi va ijtimoiy integratsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Sinaluvchilarning sinflar kesimidagi tahlili natijalariga ko‘ra, 9-sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-psixologik dezintegratsiya darajasi yuqori sinf o‘quvchilariga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi (36,71%). Eng past dezintegratsiya ko‘rsatkichi esa 11-sinf o‘quvchilarida qayd etildi. Ushbu holat yuqori sinf o‘quvchilarida o‘z fikrini erkin ifoda etish, ta’lim muhitiga faol qo‘shilish va jamoa bilan samarali hamkorlik qilish ko‘nikmalari yaxshiroq rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, yuqori sinf o‘quvchilari ta’lim muhitidagi o‘zgarishlarga, jamoadagi muammolar va adolatsizlik holatlariga nisbatan o‘z munosabatini bildirishga moyilligi bilan ajralib turadi. Bu esa ularda ijtimoiy faollik va fuqarolik pozitsiyasining shakllanayotganidan dalolat beradi.

“Maktab o‘quvchilarining ijtimoiy-madaniy xavfsizligi indeksi” so‘rovnomasining “Virtual autizatsiya (odamovilik)” shkalasi bo‘yicha olingan natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, respondentlarning 35,15 foizida virtual autizatsiya holati aniqlangan. Mazkur toifadagi o‘quvchilar real ijtimoiy munosabatlarga nisbatan virtual muloqotni afzal ko‘rishlari bilan tavsiflanadi [10, 95-b.].

Bunday holat o‘quvchilarning kommunikativ faolligi pasayishiga, real ijtimoiy munosabatlardan uzoqlashishiga hamda ijtimoiy moslashuv jarayonlarida muayyan qiyinchiliklarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

3-jadval

“Virtual autizatsiya (odamovilik)” shkalasi bo‘yicha statistik natijalar

Sinf	Me’yoriy ko‘rsatkich N (%)	Me’yordan og‘ish N (%)	O‘rtacha qiymat (M)	Σ
9-sinf	67 (52,34%)	61 (47,65%)	11,5	2,5
10-sinf	86 (71,66%)	34 (28,33%)	13,8	2,0
11-sinf	72 (72,72%)	27 (27,27%)	14,1	1,8
Umumiy	225 (64,84%)	122 (35,15%)	13,1	2,1

Tahlil natijalariga ko‘ra, virtual autizatsiya darajasi eng yuqori 9-sinf o‘quvchilarida qayd etildi (47,65%). Mazkur ko‘rsatkich ushbu yosh guruhida internet va virtual kommunikatsiya vositalariga nisbatan yuqori darajadagi qaramlik mavjudligini ko‘rsatadi.

Korrelyatsion tahlil natijasida virtual autizatsiya va ijtimoiy-psixologik zaiflik o‘rtasida o‘rtacha kuchli musbat bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi (r=0,61). Ushbu natija virtual muhitga haddan tashqari bog‘lanish o‘quvchilarning real ijtimoiy munosabatlardagi qiyinchiliklarini kuchaytirishi hamda ularning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Jadval ma’lumotlari asosida sinaluvchilarning “Virtual autizatsiya (odamovilik)” shkalasi bo‘yicha natijalari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 9-sinf o‘quvchilari orasida ushbu tipga mansub o‘quvchilar soni eng yuqori ekanligi aniqlandi. Ularning ulushi 47,65 foizni tashkil etib, bu tadqiqotda ishtirok etgan barcha sinaluvchilarning umumiy ko‘rsatkichidan 12,5 foizga yuqori ekanligi qayd etildi.


“Virtual autizatsiya (odamovilik)” shkalasi bo‘yicha me’yoriy ko‘rsatkichlardan og‘ish kuzatilgan o‘quvchilar maktab muhitida hamkorlikdagi faoliyatda sust ishtirok etishlari, ijtimoiy aloqalarda past samaradorlik bilan harakat qilishlari bilan tavsiflanadi. Bunday o‘quvchilarda kommunikativ dialogning buzilishi natijasida tengdoshlari va kattalar bilan muloqot jarayoni ko‘pincha murakkab va ziddiyatli kechadi.

Shuningdek, ularning atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatlari ko‘proq anonim va virtual aloqalar asosida shakllanadi. Bu esa o‘z-o‘zini identifikatsiyalash

jarayonida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Natijada bunday o‘quvchilarning jamoada o‘zini namoyon etish darajasi past bo‘lib, ular ijtimoiy faollik va tashabbuskorlikda ham sustroq natijalarni ko‘rsatadilar.

10- va 11-sinf o‘quvchilarida virtual autizatsiya ko‘rsatkichlari nisbatan past darajada qayd etildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yosh ortishi, hayotiy tajriba va ijtimoiy-kommunikativ ko‘nikmalarning rivojlanishi bilan odamovilik xususiyatlari kamayib, o‘quvchilarning jamoada o‘zini namoyon etish va samarali ijtimoiy munosabatlar o‘rnatish imkoniyatlari kengayadi.

Uchala shkala bo‘yicha olingan natijalar asosida sinaluvchilarning “Ijtimoiy-madaniy xavfsizlik indeksi” ko‘rsatkichlari hisoblab chiqildi va umumiy tahlil amalga oshirildi.



1-rasm. “Ijtimoiy madaniy xavfsizlik indeksi” ning umumiy natijalari.

Umumiy natijalarga ko‘ra, “Ijtimoiy-madaniy xavfsizlik indeksi” 66,95 foizni tashkil etdi. Statistik jihatdan ushbu natija o‘quvchilarning aksariyatida ta’lim muhitiga nisbatan ijobiy munosabat hamda psixologik himoyalanganlik hissi mavjudligini ko‘rsatadi.

Diagramma ma’lumotlariga muvofiq, maktab o‘quvchilarining ijtimoiy-madaniy xavfsizlik indeksi uchta asosiy shkala natijalari asosida aniqlangan. Shkalalar orasida eng yuqori me’yoriy ko‘rsatkich “Ijtimoiy-psixologik dezintegratsiya (parchalanish)” shkalasi bo‘yicha qayd etildi. Unga ko‘ra, tadqiqotda ishtirok etgan o‘quvchilarning 72,3 foizi ijtimoiy-psixologik dezintegratsiyadan xoli ekanligi va ularda individual psixologik introektlar darajasi

pastligi aniqlandi. Mazkur shkala bo‘yicha eng yuqori me’yoriy natijalar 11-sinf o‘quvchilarida kuzatildi.

“Virtual autizatsiya (odamovilik)” shkalasi bo‘yicha sinaluvchilarning 64,8 foizi me’yoriy ko‘rsatkichlarni namoyon etdi. Biroq 9-sinf o‘quvchilarida ushbu ko‘rsatkich umumiy me’yoriy darajadan past bo‘lib, ularning natijalari umumiy ko‘rsatkichdan 12,5 foizga kam ekanligi aniqlandi.

“Ijtimoiy-psixologik zaiflik” shkalasi bo‘yicha umumiy maktab ko‘rsatkichi boshqa shkalarga nisbatan eng past natijani qayd etdi. Tadqiqot ishtirokchilarining 36,3 foizida viktimlilik va autoagressivlikka moyillik kuzatildi. Viktimlilik shaxsning salbiy hodisalar yoki huquqbuzarliklar qurboniga aylanish ehtimolini oshiruvchi psixologik xususiyat bo‘lsa, autoagressivlik o‘ziga nisbatan jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan ongli yoki ongsiz faoliyat sifatida tavsiflanadi. Bunday o‘quvchilar ta’lim muhitida o‘zlarini yetarli darajada xavfsiz his qilmasliklari hamda mazkur xulq-atvor shakllaridan psixologik himoya mexanizmi sifatida foydalanishlari mumkin.

Umumlashtirilgan natijalarga ko‘ra, “Ijtimoiy-madaniy xavfsizlik indeksi” 66,9 foizni tashkil etdi. Demak, sinaluvchilarning qariyb 67 foizi ta’lim olayotgan muassasasini xavfsiz muhit sifatida qabul qiladilar. Ular o‘z ichki salohiyatidan samarali foydalana oladigan, jamoat ishlarida va shaxsiy rivojlanish faoliyatida faol ishtirok etadigan hamda voqea-hodisalarga nisbatan adekvat baho bera oladigan shaxslar sifatida tavsiflanadi.

“Maktab o‘quvchisining ijtimoiy-madaniy xavfsizligi indeksi” metodikasi zarur psixometrik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, uni ta’lim muhitidagi xavf omillarini baholashda samarali diagnostik vosita sifatida qo‘llash imkonini beradi. Ta’lim muhiti xavfsizligiga bag‘ishlangan ilmiy munozaralarda odatda ikki asosiy yondashuv ajratib ko‘rsatiladi. Birinchisi, ta’lim jarayonining insonparvarlik g‘oyalari asosida tashkil etilishi zarurligi bo‘lib, bunda hamkorlik munosabatlari, xavfsiz muhit, shaxs erkinligi va mustaqilligini hurmat qilish, bola huquqlarini himoya qilish, rivojlanish va muvaffaqiyatni rag‘batlantirish hamda axloqiy dunyoqarashni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi yondashuv esa aniq qoidalar va samarali pedagogik texnologiyalar asosida o‘qituvchi hamda o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

Psixologik xavfsizlik, bola huquqlarini himoya qilish va ta’limni insonparvarlashtirish masalalari ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda bevosita yoki bilvosita yoritilgan. Gumanistik psixologiya asoschilaridan biri A. Maslou ehtiyojlar

ierarxiyasida xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyojni fiziologik ehtiyojlar bilan bir qatorda inson rivojlanishining fundamental sharti sifatida baholaydi. Olimning fikricha, xavfsizlik ehtiyoji qondirilmasdan turib shaxsning o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarishi va to‘laqonli rivojlanishi mumkin emas.

E. Fromm ham insonlar o‘rtasidagi sog‘lom munosabatlarning shakllanishi jamiyatda shaxs xavfsizligini ta’minlovchi va qo‘llab-quvvatlovchi sharoitlar mavjudligiga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Shu bois himoyalanganlik tushunchasi xavfsizlik tushunchasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, xavfsiz muhitning mavjudligi shaxs rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bu masala, ayniqsa, psixologik-pedagogik faoliyatda dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki psixologik jihatdan qulay va xavfsiz ta’lim muhitini yaratish shaxs kamolotining muhim shartlaridan biridir.

Shuningdek, Pearson korrelyatsiya koeffitsienti yordamida o‘tkazilgan tahlil natijasida ijtimoiy-psixologik zaiflik va virtual autizatsiya o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli musbat bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi ($r=0,58$; $p\leq0,01$). Bu natija psixologik zaiflik darajasi oshgan sari virtual odamovilik tendensiyasining ham kuchayib borishini ko‘rsatadi.

Matematik-statistik tahlil natijalari ta’lim muhitida psixologik xavfsizlikni mustahkamlash, o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlash hamda virtual xavflarning oldini olishga qaratilgan profilaktik va psixokorreksion tadbirlarni kuchaytirish zarurligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Ta’lim muhitida o‘quvchi shaxsining xavfsizligini ta’minlash ijtimoiy-psixologik jihatdan muhim masalalardan biridir. Tadqiqot natijalari o‘quvchilarning bir qismida ijtimoiy-psixologik zaiflik, virtual autizatsiya hamda kommunikativ muammolar mavjudligini ko‘rsatdi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin: maktab psixologlari faoliyatini kuchaytirish; o‘quvchilar bilan psixokorreksion treninglar o‘tkazish; ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirish; xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratish; virtual qaramlik profilaktikasini tashkil etish; o‘quvchilar o‘rtasida empatiya va tolerantlikni rivojlantirish.

Shunday qilib, ta’lim muhitida ijtimoiy-psixologik xavfsizlikni ta’minlash o‘quvchilarning barkamol shaxs sifatida shakllanishi, ularning ruhiy salomatligi hamda ijtimoiy faolligini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ergashev N. Shaxs va jamiyat psixologiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2016. – 240 b.
2. Fromm E. The Art of Loving. – London: Routledge, 2006. – 187 p.
3. G‘oziev E.G‘. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2020. – 312 b.
4. Гилемханова Э.Н. Социально-культурная безопасност школников. – Москва: Просвещение, 2015. – 210 с.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 256 b.
6. Mahmudov A. Muloqot psixologiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 224 b.
7. Maslow A. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 2004. – 293 p.
8. Nishonova Z.T. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 280 b.
9. To‘xtaboyeva M. Ta’lim psixologiyasi. – Toshkent: Tafakkur, 2021. – 198 b.
10. Xolmatov X. Ta’lim muassasalarida psixologik xizmat. – Toshkent: Ilm ziyo, 2022. – 176 b.

MUNDARIJA

UYUSHMAGAN YOSHLAR VA ULARNING MUAMMOLARI Atabayeva Nargis Batirovna	**4**
TURLI YOSH DAVRLARIDAGI SHAXSLARDA O‘ZINI O‘ZI FAOLLASHTIRISH VA EMOTSIONAL SOHA O‘RTASIDAGI ALOQADORLIKLAR Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li	**25**
O‘ZBEK VA QIRG‘IZ QIZLARINI ETNIK STEREOTIPLARI VA IJTIMOIY USTANOVKALARINI ILMIY TADQIQ ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI Djuxonova Noxida Xayotjonovna	**33**
ZAMONAVIY SHIFOKORLAR PROFESSIONAL KARERASIDA PSIXOLOGIK OMILLARNING TA’SIRI Arziqulov O‘tkirbek Maxammatovich	**43**
KIMYOVIY ADDIKTATSIYALARDA OILAVIY MUHITNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI Mirashirova Nargiza Anvarovna., Raxmatova Zulxumor Alimovna	**50**
TYUTORLARNING BOSHQARUV USLUBLARI VA ULARNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI Alijonov Nurbek Ulug‘bek o‘g‘li	**56**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING JINSIY XUSUSIYATLARI Rajabov Murodil Jumaboyevich., Yuldasheva Shoxista Tojialiyevna	**70**
TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHI SHAXSI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK USULLARI Soliyev Farxodjon Sodiqovich., Akbarova Nigora Axmadjonovna	**78**

MUNDARIJA

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O‘QUVCHILARIDA KASBIY O‘ZINI-O‘ZI BELGILASH: MOTIVATSION VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Mo‘minov Davronjon Marifjon o‘g‘li	**92**
O‘ZBEK VA RUS QIZLARINI OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARINI AMALIY O‘RGANILISHI Usmonova Nargiza Raximjonovna	**102**
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ Мирзажонова Элеонора Топволдиевна	**110**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RUHIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Z.O.Abdullayeva	**117**
HARBIY FAOLIYATDA ZAMONAVIY STRESS OMILLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi	**125**
PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA MOLIYAVIY STRESS MUAMMOSINING ILMIY TADQIQ ETILGANLIK DARAJASI Sotvoldiyeva Nargiza Abdukarimjon qizi	**136**
КОРРЕЛЯЦИЯ ИНФОРМАЦИОННОГО И ТЕМПЕРАМЕНТНОГО КРИТЕРИЕВ ВЕРТНОСТЕЙ В СФЕРЕ КОГНИТИВНОЙ СОЦИОНИКИ Туллекова Карина Сергеевна	**143**
TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARNING SHAKLLANISH OMILLARI VA BARTARAF ETISH YO‘LLARI Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	**157**

MUNDARIJA

MURAKKAB BICHIMDAGI USTKI KIYIMLARNI MODELLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Sattorova Ra’no Abdunazar qizi., Sindarova Shoxista Maxammatovna	**166**
O‘ZBEKISTONDA BAG‘RIKENGLIK SIYOSATINI YURITISHDA ETNOTURIZMNING O‘RNI Shavkat Bobojonov	**173**
BUXORONING OILAVIY VA JAMOAVYI MAROSIMLARI (MAHALLIY ERONIYLAR MISOLIDA) Iroda Kalonova	**177**
ELLIPTIK GAPLARNING STILISTIK MAQOMI Rasulov Zubaydullo Izomovich	**183**
PRAGMATIC AND COGNITIVE ANALYSIS OF CONCEPT “PEACE” IN POLITICAL SPEECH Rakhmatova Mehriniso Musinovna., Rakhmonova Jasmina Anvarovna	**188**
TIL EVOLYUTSIYASIDA O‘ZGARUVCHANLIK VA TEJAMKORLIK PRINSIPLARI Qobilova Nargiza Sulaymonovna	**194**
ZAMONAVIY INTERNET-MULOQOTDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR FENOMENI Jalolova Nigina Zavqiddin qizi	**203**

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/